https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘rozova Feruza Ilxom qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

Universiteti 2- bosqich talabasi

TILSHUNOSLIK SOHASIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI VA FRAZEOLOGIZMLARNING BO‘LIMLARI, TURLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada frazeologik birliklarning tilshunoslikda o‘rganilishi, olimlarimiz qarashlari uning bo‘limlari ,turlari yoritib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR

frazeologiya, frazeologik birliklar ibora ,fikrlar.

KIRISH

Barchamizga ayonki,til kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta’minlovchi va avloddan-avlodga yetkazish bilan bir qatorda asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi. Til milliy madaniyatning xazinasidir.Nutq jarayonida fikrimizni faqatgina so‘zlar yordamida emas, balki ikki yoki undan ortiq so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan, nutqqa tayyor holda keladigan birliklardan ham keng miqyosda foydalanamiz. Bu birliklar nafaqat tilimizni tasvirlaydi, balki uning ma’noli va mazmunli,lo‘nda bo‘yoqdor tarzda tasvirlaydi. Tilshunoslik sohasida frazeologizmlar umumiy tilshunoslikning yirik bo‘limlaridan biri hisoblanmish leksikologiyaning bir qismi sifatida o‘rganilib kelinmoqda va bir qancha bu borada yangi bo‘limlarning yaratilayotganligi barchamizga ayon .Tilshunoslikda bunday bo‘limlarni Frazeologiya bo‘limida o‘rganiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologiya (gr.phrasis.ifoda , logis ta'limot)— leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir.Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi hisoblanadi.

Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdan iborat.Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.Til ilmida antroposentrik yo'nalishlar doirasida namoyon bo'ladigan va nutq jarayonida faollashadigan konnatativ denotativ hamda kognitiv moxiyatini namoyon etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Insonning emotiv xudusiyatlarini tavsiflovchi frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari, milliy-madaniy manzarasini tadqiq etish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Frazeologiyani ma'lum bir tilning xazinasi deyishimiz mumkin. Buning sababi shundaki frazeologiya xalqning tarixini madaniyatini va o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Frazeologizmlar millatning urf- odatlarini,an'analarini o'zida aks ettiradi. Frazeologizmlarni nutqni bezaydigan vosita sifatidagina qarash noto'g'ri

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

albatta chunki ular ham boshqa til birliklari singari yuqori informativ xuusiyatga ega tilda nominativ va kommunikativ funksiya bajaradi.Frazeologik birliklar uchramaydigan birorta ham til yo‘. Ingliz va amerika tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ingliz tili frazeologiyasida nisbatan kam foizni tashkil qilib asosiy frazeologik muommolar va so‘zlarning o‘zaro munosabati ,frazeologik birliklar variantdoshligi , frazeologiyani o‘rganish metodlari frzeologiyaning fan sifatidagi rivojlanishi kabi nazariy muommolar asosan rus tilshunoslari A.V.Kunin, V. V. Vinogradov , N.M.Shanskiy, T.N.Fedulonkovalar tomonidan ishlab chiqilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri hisoblanib, u tilshunoslikning bir qator bo‘limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya, morfologiya, grammatika bilan bevosita bog‘liqdir .Shuningdek u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma’lumot beradi, ya’ni frazeologiya tilshunoslikning frazemalar bilan shug‘ullanuvchi va turg‘un iboralar haqidagi bilim demakdir. Frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘rib chiqish frazeologiyaning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini mukammal o‘rganib chiqishni talab etadi. Frazeologiya tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma’lumot beradi, ya’ni frazeologiya tilshunoslikning frazemalar bilan shug‘ullanuvchi va turg‘un iboralar haqidagi bilim demakdir.

Iboralar turg‘un birikma holidagi atamalarni, parafrazalar va frazeologizmlarni o‘z ichiga oladi. Bu birikmalar faqat ma’no ifodalash xususiyatiga ko‘ra bir-biridan o‘zaro keskin farq qiladi. Birikma atamalar ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nosi sintezidan kelib chiqadi. Parafrazalar turg‘un birikmalardan iborat bo‘ladi. Ularning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ma’nosi ham tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan kelib chiqadi. Biroq tarkibidagi so‘zlar birikma atamalari kabi nominativ ma’nosi bilan emas, balki majoziy ma’nosi bilan ishtirok etadi.

Frazeologiya bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rivojiga ko‘plab tilshunoslar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo‘ib shakllanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib tarqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, frazeologik birliklar til bilan paydo bo‘lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o‘rni va ahamiyati turlicha baholanadi.

Frazeologiya tilshunoshlikda mustaqil fan sifatida yaqinda paydo bo‘lgan. Uning shakllanishi taniqli tilshunoslar nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Shuni aytish joizki, frazeologiya sohasidagi dolzarb muammolarni yoritishda V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin o‘zlarining bebaho hissalarini qo‘shgan va shu sababli yangi izlanishlarga keng yo‘l ochib berishgan. hissalarini qo‘shishgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo‘lib shakllanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib tarqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, frazeologik birliklar til bilan paydo bo‘lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o‘rni va ahamiyati turlicha baholanadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarning lisoniy tabiati, leksik-grammatik xususiyatlari, shuningdek, badiiy asarlarda frazeologizmlar tarjimasi, tillararo tarjima muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, S.Mirzaqulov, Sh,Abdullayev, N.O‘rmonova, D.Hoshimovalar tomonidn bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. So‘nggi paytlarda o‘zbek frazeologiyasi sohasidagi ishlar yanada rivojlantirilib, frazeologik va frazeografik hamda tarjima muammolari o‘z yechimini topmoqda. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlarning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

struktur-semantik tahlili, badiiy tarjima masalalariga bag‘ishlangan anjumanlar, monografiya va o‘quv amaliyotlari shular jumlasidandir. O‘zbek va rus tillaridagi frazemalarni qiyosiy-amaliy aspektda o‘rgangan

M.Sodiqova va M.Abdurahimovlar ikki tillik frazeologik lug‘atlar yaratib, tarjimonlar uchun amaliy qo‘llanma taqdim etishgan. J.Sharipov, G‘.Salomovlar o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri tarjimashunoslik nazariyasi bilan shug‘ullanib, bir necha monografik tadqiqotlar yaratdilar. G‘.Salomov o‘z ishlarida “frazeologik ibora”, ”idioma”, ”ibora” kabi atamalardan sinonim sifatida foydalandi, bunday til birliklarini maqol va matallardan farqlashga intiladi. Shu bilan birga qoraqalpoq tilshunos olimlari tomonidan ham frazeologiyaning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, J.Eshbaev, T.Jumamuratov G.Aynazarova ,B.Yusupova, A.Pirniyazova, J.Tanirbergenov, G.Allambergenovalarning ilmiy izlanishlarini sanab o‘tish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, turli ijodkorlar asarlaridagi frazemalar tadqiqi orqali ularning badiiy matnlarda qo‘llanishini o‘rganish muhim masalalardan hisoblanadi.

Frazeologiya alohida fan sifatida shakllanguniga qadar u leksikologiyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziqa boshlagan bo‘lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g‘arb tilshunosi Sh.Balli tomonidan qo‘llanilgan. U o‘zining “Stilistikadan ocherklar” va “Fransuz tili stilistikasi” asarlarida so‘z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma’nolarining o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo‘llanila oladigan birlik ekanligini isbotlashga harakat qildi. O‘zbek tilining frazeologizmlari besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (2006-2008) va bir jildlik “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da (1988) birmuncha

to‘laroq aks etgan bo‘lsa-da, bu lug‘atlarda ham o‘zbek tilidagi barcha iboralar qamrab olingan deb bo‘lmaydi. Frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi haqida gapirilganda, ”frazeologiya” atamasi “fraza” so‘zidan olingan bo‘lsa-da,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

turkiyshunoslikda dastlab bu atama turli ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802- 1870) o'sha davr an'analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lgani singari o'z asarida "fraza" so'zini jumla, gap ma'nosida qo'llagan.

Bunday amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida olimlarimiz frazeologizmlarning bir qancha turlarga bo'linishini isbotlab bergan va ularning frazeologizlar haqida fikrlarini keltirishimiz mumkin:

V.Kunin "Frazeologiya-frazeologik birliklar haqidagi fan bo'lib,ma'nosi komponentlarining ma'nosidan kelib chiqmaydigan murakkab ma'noli birliklardir"deb ta'rif beradi.O'z fikrini davom ettirib "frazeologik birliklar inson idrok etgan narsa-hodisalar,predmet, voqelik jarayon,xolat va vaziyatlar, tushunchalarning nomini to'liq ifoda eta olmaydigan,yani tilning leksik tizimidagi lakunalarni to'ldiradi"[1] deb to'ldiradi"

V.Vinogradov frazeologik birliklarni frazeologik butunlik,frazeologik chatishma,frazeologik qo'shilma kabi semantik tasnif qilib, barcha turg'un birikmalarni frazeologik tarkibga kiritdi.

Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Y.D.Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik bo'limi ekanligini asoslab bergan edi."Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning grammatik ma'nolarini, sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda". U tilshunoslikda frazeologiya ham, morfologiya yoki fonetika singari muhim ahamiyat kasb etadigan bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

A.Reformatskiy frazeologiya to‘g‘risida shunday deydi: “Biror adabiy yo‘nalishga yoki biror muallifga nisbatan qo‘llaniladigan so‘zlar va so‘z birikmalari frazeologik birikmalar” deb ataladi.

V.M.Mokiyenkoning fikriga ko‘ra esa “Frazeologik birlik deganda turg‘un, qayta ishlangan, ekspressiv, yaxlit ma’noga ega bo‘lgan leksemalar birikmasi tushuniladi”.

Frazeologiya sohasi bo‘yicha juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunoslardan M.D.Stepanova hamda I.I.Chernishovalar frazeologizmlar bir ma’no anglatuvchi, ammo turli sintaktik tuzilishga ega bo‘lgan turg‘un so‘zlar yig‘indisidir, uning ma’nosi birikma tarkibining batamom yoki qisman semantik ma’nosiga bog‘liq bo‘ladi deb fikr yuritadilar.

Frazeologik birliklar nafaqat tilshunoslikning, balki badiiy adabiyotning ham eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. “Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta’sirchan vosita sifatida qo`llaniladi” (B.Yo`ldoshev) va, asosan, quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Biror voqea va hodisani obrazli va ta’sirli ifodalash;

2. Badiiy matnda ifodaviylikni ta’minlash;

3. Nutqda ekspressivlikni ifodalash;

4. Milliy koloritni yaratish;

5. Qahramonlar nutqini jonlantirish;

6. Matnning semantik to’liqligini ta’minlash

1.А.В.Кунин. Фразеология современного английского языка. – М.,1986. – 5 с.

7. Badiiy matnda satira va yumorni hosil qilish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Frazeologiyaning dastlabki bo‘limi — ideomatika barqaror kombinatsiyalar ya’ni idiomalar o‘rganiladi. Idiomalar to‘liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma’noga ega leksemalar bo‘lib, bunday frazeologik birliklar struktur jihatdan har xil, ma’no jihatidan yo motivatsiyali yoki motivatsiyasiz bo‘lishi mumkin. Idiofrazeomatika bo'limining obyekti idiofrazeoma birliklari yoki idiofrazeomatizmlar hisoblanadi. Idiofrazeomatizmlar polisemantik frazeologik birliklar bo’lib, bunday turg'un iboralar, birinchi frazeosemantik variantlarda komponentlari mavjud, to'g'ridan-to'g'ri, lekin murakkab ma'noga ega bo’ladi, ikkinchi idiomatik variantlarda esa butunlay metaforik ma’no ifodalaydi. Masalan: “chainreaction” idiofrazeomatizmining birinchi ma’nosi ilmiy atama bo’lgan zanjir reaksiyasi bo’lsa, ikkinchi ma’nosi qayta ko'rib chiqish ni bildiradi.

Frazeomatika bo’limga frazematik birliklar (noidiomatik frazeologik birliklar) kiradi. Bunday turg’un iboralar idiomatik xarakterli bo’lmagan frazemalar bo’lib, ular murakkab ma'noga egaligi bilan so’z-leksemalardan farq qiladi. Masalan: ingliz tilidagi Dutch frazeomatizm hisoblanib, bu so’z salbiy ma’noli bir qancha iboralar tarkibida mavjud, jumladan, Dutch bargain (bir tomonlama foydali bitim), Dutch comfort (biroz tasalli), Dutch courage (mastlikda qilingan jasorat). davr ruhiga ega bo’lgan frazeologik birliklarni o’rganuvchi frazeologiya, mustaqil fan sifatida allaqachon shakllangan va bugungi kunda 3 bo’limga bo’lib o’rganilishi e’tirof etilmoqda.

Frazeologizmlar sintaktik tuzilishiga kura 2 ga bo‘linadi[2]: birikmaga teng frazeologizmlar (katta og‘iz, ammamning buzog‘i, tuyog‘ini shiqillatmoq) va gapga teng frazeologizmlar (yuzi yorug‘ bo‘ldi, boshi osmonga yetdi, sirkasi suv kutarmaydi). Frazeologizmning qismlari ajralmas holda bo‘lganligi uchun, frazeologizm gapda bitta sintaktik vazifada keladi.Maye: “Qizga o‘zbek qishlog‘ining sodsa hayoti, oq ko‘ngil odamlari yoqdi” va “Nasimjon boshi ko‘kka yetguday suyundi” gaplarida “oq ko‘ngil” frazemasi — aniqlovchi, “boshi ko‘kka yetguday” frazemasi hol vazifasida kelgan. Frazeologizmlar tayyor lug‘aviy birlik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

— so‘zga teng bo‘lganligi tufayli so‘zga xos shakl va ma’no munosabatlariga ham ega bo‘ladi, ya’ni tilda frazeologik omonimiya (mas, qo‘l ko‘tarmoq — 1) urmoq, urmoqchi bo‘lmoq, 2) tarafdorligini bildirmoq), frazeologik sinonimiya (toqati toq bo‘lmoq — sabrkosasi to‘lmoq) va frazeologik antonimiya (ko‘ngli oq — ichi qora, ko‘kka ko‘tarmoq — yerga urmoq) mavjuddir.

2.Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Т., 2000. – Б.47.

XULOSA

Frazeologik birlik tilning aloxida shakllangan, barqaror, takrorlanadigan,tilda tayyor holda mavjud bo‘lgan birligi bo‘lib,uning yetakchi va dominant xususiyati obrazlilik tarkibiy qismlarining to‘liq yoki qisman qayta semantik shakllangan til birliklaridir.Frazeologik birliklar tilning eng muhim va ifodali vositalaridan biri bo‘lib, xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, urf-odati va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Ular ikki yoki undan ortiq so‘zning barqaror birikmasidan tashkil topib, nutqda ko‘chma ma’noda, yaxlit holda qo‘llanadi hamda tarkibidagi so‘zlarning alohida ma’nosiga tenglashtirib bo‘lmaydi. Frazeologik birliklar nutqni obrazli, ta’sirchan va badiiy jihatdan boy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklarning asosiy belgilariga ularning turg‘unligi, yaxlit ma’noga egaligi va tayyor holda qo‘llanishi kiradi. Bu birliklar so‘z birikmalari va erkin birikmalardan aynan shu jihatlari bilan farqlanadi. Frazeologizmlar tilning leksik boyligini oshirib, so‘zlovchining fikrini qisqa, aniq va ta’sirli ifodalash imkonini beradi.

Frazeologik birliklar xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot, publitsistika va kundalik nutqda keng qo‘llanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini ochish, voqea-hodisaga baho berish va muallif g‘oyasini chuqurroq yetkazishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, frazeologizmlar milliy madaniyat va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mentalitetning til orqali namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. frazeologik birliklar tilning mazmuniy va estetik imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqni jonlantiruvchi va milliylikni aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularni chuqur o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash til madaniyatini yuksaltiradi hamda nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Frazeologik iboralarni turli tomondan o‘rganish va unga har tomonlama yondashish uning xususiyatlarini ochish umumlashtirish yangidan yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. T., 1978
2.www.wikipedia.org. 9. www.ziyonet.uz
3. ZIYOUZ.COM
4. Collins Dictionary of the English Language. Ed. by L. Urdang, P. Hanks, Th. H. Long.
– London; Glasgow: Collins, 2006.

5.Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1986.

6. Виноградов В.В. Фразеология современного английского языка. М., 1972.